

## O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIKNING SABABLARI VA YECHIMLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8076957>

**Shomurodov Abdurahmon Dilmurod o'g'li**

**Xasanov Nozim Naimovich**

**Uzoqov Shaxzodjon Do'smat o'g'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali talabalari*

*TDIUSF assistenti*

**Mamur Tairovich Saidmurodov**

[mamur.saidmurodov@sbtisue.uz](mailto:mamur.saidmurodov@sbtisue.uz)

### **Annotatsiya**


Maqola ishsizlikka umumiy ta'sir etuvchi omillar va yechimlarni o'z ichiga oladi. Maqola, shuningdek, O'zbekistonda o'tgan yillarda sodir bo'lgan ishsizlikka oid ayrim holatlar va ularga qo'llanilgan yechimlar, hozirgi paytda sodir bo'layotgan ishsizlikning sabablari va ularni bartaraf etishga yondashilgan yechimlarni bayon etadi.

### **Kalit so'zlar**

Ishsizlik muammosi, ishsizlikning darajasi, O'zbekiston, texnologik rivojlanaish, rivojlanmagan mehnat bozori.

Dunyo bo'ylab ishsizlik muammosi yechish bo'yicha ko'plab izlanishlar olib borilmoqda, ammo aniq yechimlar har bir mamalaktning joylashgan geografik o'rnidan, tabiiy resurslarga ega ekanligidan, siyosiy va iqtisodiy qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligiga bog'liq. Shu jihatdan bu ko'rsatkichlar O'zbekiston uchun turlicha[3].

Bugungi kunda O'zbekistonda ishsizlik darajasi kamayib borayotgani yaqqol aks etyapti. Jumladan, O'zbekiston 2022-yil iyun-iyul-avgust oylarida Iqtisodiy faol aholi qismini 15 139 100 kishini va ish bilan band aholi esa 13 835 900 kishini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich bo'yicha ishsizlik darajasi 8.6% ni tashkil etadi, bu 2021-yilga qaraganda 1% ga kamaygan



hisoblanadi. Ammo bu ko'rsatkich normal darajalardan ancha yuqori hisoblanadi. 3% va 5% orlaliqdagi ishsizlik darajasi normal holat hisoblanadi, chunki freksion va tarkibiy ishsizlik tarkibini o'zgartirish ilojsiz bo'lganligi hisobidan (masalan, Qozog'istonda ishsizlik darajasi 4.9% ni tashkil etadi). Freksion ishsizlik bu ma'lum malaka va mahoratga ega bo'lmagan shaxslar hisoblanadi. Tarkibiy ishsizlik bu ma'lum texnologik o'zgarishlar natijasida ishsiz bo'lib qolgan shaxslar kiradi [1].

Umumiy jihatdan O'zbekistonda ishsizlik darajasiga ta'sir ko'rsatayotgan ayrim sabablarni keltirib o'tamiz.

O'zbekistonda ishsizlikning tabiiy darajasi.

Mamlakatda to'la ish bilan bandlikka erishib bo'lmaydi, davriy ishsizlik darajasi nolga teng bo'lganda ham, tarkibiy va freksion ishsizlikda ma'lum bir raqamlar qayd etib turiladi, bu mamlakat bo'yicha ishsizlikning tabiiy darajasi hisoblanadi. Friksion ishsizlik o'z kasbini o'zgartirgan va o'z kasbini mutaxassisi bo'lishini kutayotgan mehnatga layoqatli aholi hisoblanadi, bu asosan qisqa davrda sodir bo'ladi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda ishsizlikning tabiiy darajasiga talabalarning soni yetarlicha hissa qo'shmoqda. Statistika agentligining axborotiga ko'ra, 2022-yil O'zbekistonda 1 040 400 talaba oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotganligi bayon etilgan. Bu ko'rsatkich O'zbekistonda Friksion ishsizlik bo'yicha ishsizlikning tabiiy darajasiga 6.9% ulush qo'shmoqda. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish hajmini va samaradorligini oshirish maqsadida yangi texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tilayapti, bu butun bir sohaga ishchi kuchini va shu soha uchun zarur bo'lgan mehnat resursiga talabni qisqartiradi. Bu o'z-o'zidan ish bilan band bo'lganlarni ishidan mahrum bo'lishiga olib keladi. Bunda ishsiz qolganlar ma'lum bir yangi ko'nikma va tajriba uchun o'qitilishlari talab etiladi va jarayon uzoq davrni talab etadi. Bu jarayonda strukturaviy ishsizlik yuzaga keladi. O'zbekiston rivojlanayotgan mamlakat bo'lganligi sababli, tarkibiy ishsizlik darajasi tabiiy ishsizlikka qo'shayotgan hissasi juda kam hisoblanadi. Shu jumladan, hozirda O'zbekistonda ishlab chiqarishda yoki iqtisodiyotda inson resurs(kapital)idan foydalanish ishlab chiqarishning katta ulushini egallaydi, bu ko'rsatkich qishloq xo'jaligi sanoatida qariyb 95% ga teng.

O'zbekistonda texnologik rivojlanish va malakaning yetishmasligining ishsizlikka ta'siri.

Texnologik rivojlanish va malakaning yetishmasligi ishsizlikning sabablari sifatida keltirilgan ikkita omildir. Texnologik rivojlanish turli yo'llar bilan ish o'rinlarining yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Masalan, yangi texnologiyalar ilgari odamlar tomonidan bajarilgan vazifalarni avtomatlashtirishi mumkin yoki ular mahsulot va xizmatlarni yanada samarali ishlab chiqarish imkonini beradi, bu esa

ishchi kuchiga talabning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ko'nikmalarning yetishmasligi ham ishsizlikka olib kelishi mumkin. Masalan, mehnat bozorida talab qilinadigan ko'nikmalarga ega bo'lmagan ishchilar ish topishda qiynalishi mumkin. Bundan tashqari, yangi texnologiyalardan foydalanish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lmagan ishchilar mehnat bozorida o'zlari uchun maxsus ish o'rinlarini topa olmasliklari mumkin. Texnologik rivojlanish va ko'nikmalarning yetishmasligi o'rtasidagi o'zaro ta'sir o'zgacha sikl (iqtisodiy aylanish)ni keltirib chiqarishi mumkin.

Mamlakatdagi rivojlanmagan mehnat bozori.

Rivojlanmagan mehnat bozorlari dunyoning ko'plab mamlakatlari oldida turgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu bozorlar yuqori darajadagi ishsizlik, to'la bandlik va norasmiy ishsizlik bilan tavsiflanadi. Rivojlanmagan mehnat bozorlari tufayli unumdorlik, ish haqi va ijtimoiy himoya darajasining pastligi yuzaga keladi.

Rivojlanmagan mehnat bozorlarining salbiy oqibatlari:

- Ular jismoniy shaxslar, korxonalar va iqtisodiyotga bir qator ta'sir ko'rsatadi;
- Ishsiz yoki yarim band bo'lgan shaxslar qashshoqlikda yashashi, sog'ligi yomonlashishi va ijtimoiy chetlanishga ta'siri.

**Rivojlanmagan mehnat bozori** – bu samarali ishlamaydigan bozor. Umumiy holatda, Mehnat bozori – ish beruvchi va ish bo'yicha izlanuvchi shaxslarni uchrashtiruvchi munosabat tizimidir; ya'ni ishchi kuchining oldi-sotdi jarayoni yuz beradigan bozor.[11]

Agar Rivojlanmagan mehnat bozorining salibiy oqibatlarini O'zbekiston bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak:

Birinchidan: Ta'lim va kadrlar tayyorlashning nisbatan pastligi: O'zbekistonda ta'lim tizimi zamonaviy iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirish uchun yaxshi jihozlanmagan. Natijada, ko'plab ishchilar yaxshi maoshli ishlarni topish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarga ega emaslar.

Ikkinchidan: Infratuzilmaning yetishmasligi: O'zbekistonda infratuzilma yaxshi rivojlanmagan. Bu korxonalar faoliyatini va ishchilarning ish topishini qiyinlashtiradi.

O'zbekistonda rivojlanmagan mehnat bozorining muammolarini hal qilish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bir qator ishlar mavjud. Ushbu vazifalarni hal qilish orqali O'zbekiston hukumati ishchilar, korxonalar va butun iqtisodiyotga foyda keltiradigan yanada samarali mehnat bozorini yaratishga yordam berishi mumkin.

Bularga quyidagilar kiritishimiz mumkin:

Ta'lim va ta'limga sarmoya kiritish: O'zbekiston hukumati ishchilarga jahon iqtisodiyotida raqobatlasha oladigan malakalarni rivojlantirishga yordam berish uchun ta'lim va o'qitish dasturlariga sarmoya kiritishi kerak.

Infratuzilmaga sarmoya kiritish: O'zbekiston hukumati korxonalar faoliyatiga yordam berish va ishchilarning ish topishini osonlashtirish uchun yo'llar, transport va aloqa tizimlariga sarmoya kiritishi kerak.

Hukumat siyosatini isloh qilish: O'zbekiston hukumati iqtisodiy o'sish va ish o'rinlari yaratishga to'sqinlik qiluvchi siyosatni qilishi kerak.

Mehnat qonunchiligini tadbiq etish: O'zbekiston hukumati ishchilarni eksplotatsiyadan himoya qilish va ularga nisbatan adolatli munosabtda bo'lishni ta'minalsh uchun optimal mehnat qonunlarini qo'llashi kerak.

Umumiy holatda texnologik rivojlanishni ishsizlik darajasiga ta'sirini, shu davrgacha bo'lgan sanoat rivojlanishida ham ko'rishimiz mumkin.

Birinchi Sanoat Inqilobi (1760-1840-y.y). Birinchi sanoat inqilobi bug' quvvati paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan. Buning vujudga kelishi bilan ko'p sanoat turlarida, xususan, yengil sanoat yangi mexanizmlar va texnologiyalar yaratilganligi bilan texnologik o'zgarish paydo bo'lgan. Bunday o'zgarish ishlab chiqaruvchilarga yuqori samaradorlik va ishlab chiqarish vaqtini tejashlari kabi qulayliklar yaratgan, lekin boshqa tomondan ishsizlik sonini qisqa muddatda ko'payishiga olib kelgan. Birinchi sanoat inqilobi boshlarida, ya'ni 1760-yillarda Xalqaro Mehnat Tashkilot (International Labour Organization) -ining hisobotiga ko'ra, global ishsizlik tahminan 3% (Buyuk Britaniyada ham 3%)-ni tashkil etgan. XIX asr boshlarida global ishsizlik 4% (Buyuk Britaniyada 10%)-gacha ko'tarilgan. Lekin bunday texnologik o'zgarish nafaqat ishsizlikning ko'payishiga olib keldi balki, ishlab chiqarish sanoatida, xususan og'ir sanoat, transport va mexanizatsiya sanoatida yangi ish o'rinlari yaratilishiga ham olib keldi.

Ikkinchi Sanoat Inqilobi (1870-1914-y.y). Ikkinchi sanoat inqilobi elektr energiyasi paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan. Bu sanoat inqilobidan oldin global ishsizlik 2% (AQSH-da 3% va Buyuk Britaniyada tahminan 3-4%)-ni tashkil etgan. Ikkinchi sanoat inqilobi sababli umumiy ishsizlik taqriban 3% (AQSH-da 8%, Buyuk Britaniyada 10%)-ni tashkil etgan. Ikkinchi sanoat inqilobi kimyo sanoati, energetika, yonilg'i, avtomobillar va mashinasozlik sanoatlarining rivojlanishiga sabab bo'ldi va qisqa muddatli ishsizlikdan keyin, yangi ish o'rinlari yaratilishida yordam berdi.

Uchinchi Sanoat Inqilobi (1950-1980y.y). Uchinchi sanoat inqilobi ro'y berishida kompyuterlar, robototexnikalar va kommunikativ texnologiyalarning

rivojlanishi ahamiyatli rol o'ynagan. Uchinchi sanoat inqilobida AQSH-da ishsizlik 4%-dan 7%-ga va Buyuk Britaniyada 4%-dan 10%-gacha oshgan. Bu sanoat inqilobi ko'plab yangi sohalar yaratilishida va iqtisodiyotning rivojlanishiga olib kelganligi sababli tezda ko'plab yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'lgan va ishsizlikning pasayishiga olib kelgan.

To'rtinchi Sanoat Inqilobi (2020-hozirgacha). To'rtinchi sanoat inqilobi sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari, avtomatizatsiya va buyumlar interneti (Internet of Things)-ning rivojlanishi natijasida yuzaga kelyapti. Bunday texnologiyalar aynan ko'p sohalarda samaradorlikni oshishiga olib keladi. McKinsey prognoziga ko'ra, 2030-yilga kelib, bunday texnologiyalar rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish bo'yicha ishchilarning 20-30%, mijozlarga xizmat ko'rsatuvchilarning 30-40%, administratsiya ishchilarining 20-30%, mahsulotni yetkazib berish va zaxiralash ishchilarining 45-50%, chakana savdogarlarning 15-25% va shu turdagi turli kasblar bilan shug'ullanuvchi ishchilarning 5%-i ishsiz qolishlari mumkin. Umumiy hisobda bu 800 million ishchini, ya'ni global ishchi kuchining 14%-ni tashkil etishi mumkin. Lekin, aynan McKinsey hisobotidan, bu texnologik o'zgarishlar 2030-yilgacha 950 million yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'lishi mumkin[10].

Demak, bu o'rinda insoniyat boshidan o'tkazgan bunday texnologik o'zgarishlar garchi qisqa muddatda ishsizlikni vujudga keltirsada, uzoq muddatda yangi ish o'rinlarini yaratilishiga sabab bo'ladi va iqtisodiy o'sishni ta'minlab ishsizlik muammosini hal etadi.

Iqtisodiy davrlar jarayonida vujudga keluvchi davriy ishsizlik.

Iqtisodiyot bu juda mukammal va o'zgarib turuvchi tizim bo'lib, ma'lum vaqt davomida o'suvchi va pasayuvchi tebranishlarni hosil qiladi, oddiy shaklda iqtisodiy sikllarni yoki davrlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda, qo'llaniladigan iqtisodiy barqarorlashtirish yoki iqtisodiy keskinlashtirish ishsizlikni keltirib chiqaradi. Masalan, iqtisodiyot neytral holatda, ya'ni umum-iqtisodiy holatlar o'zgarmas, inflyatsiya darajasi past, ammo o'sishga qulay bo'lsa. Foiz stavkasi yuqori inflyatsiyaga olib bormaydigan, va odamlar sarmoya yoki investitsiya qilishda rag'bat tug'diradigan darajada qo'yilgan (*Foiz stavkasi\*-qarz beruvchi qarz oluvchidan undirish huquqiga ega bo'lgan summa. Bu yerda, olingan kredit miqdoriga nisbatan, foiz ulushida haq to'lash nazarda tutilgan. Inflatsiya\* - mamlakatdagi tovar va xizmatlar bahosi umumiy darajasining oshishi*). Mamlakatda ishsizlik darajasi past bo'lib, ish o'rinlari ish qidiruvchilar uchun mavjud, va ishlab chiqaruvchi kompaniyalarda yetarli ishchilar bor. Markaziy Bankning asosiy vazifasi iqtisodiyotni barqaror ushlab turish hisoblanadi. Bu jarayonda, Markaziy Bank Foiz stavkasini o'rta me'yorda saqlab turadi, bu kredit va pul massasini barqaror

holatda nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Barqaror o'sish, past inflyatsiya va ishsizlik darajalari iqtisodiy o'sishga yaxshi muhit olib kelishda yordam beradi. Bu tadbirkorlik qilish muhitini yaxshilaydi, va bu ko'rinisdagi iqtisodiy jarayon ko'proq investitsiyaning oqib kelishi, bizneslarning o'sish va kengayishga intilishi va iste'molchi xarajatining ko'payishiga olib keladi (*Investitsiya\* – iqtisodiy va faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy manfaatlar va ularga bo'lgan huquqlar*).[5] Shu paytda, iqtisodiyotda Miqdoriy yengillashtirish tamoyili qo'llab-quvvatlanadi va Markaziy bank iqtisodiyotni stimulatsiya uchun iqtisodiy kengaytiruvchi pul-kredit siyosatini amalga oshiradi, ya'ni foiz stavkasini pasaytirishni qo'llaydi va bu bo'lsa ko'plab bizneslar ko'proq past foiz stavkasida kredit olib kengayishda va odamlar ko'proq kredit olib xarajat qilishiga rag'bat olib keladi. Bundan tashqari mamlakatda iqtisodiy o'sishni yanada tezlashtirish uchun kengaytiruvchi soliq siyosati qo'llaniladi, bunga soliq tushumlarini kamaytirish orqali erishiladi. Natijada iqtisodiyot gullab yashnashi, ya'ni iqtisodiy o'sish kuzatiladi, va iste'molchi xarajati oshganligi natijasida, tovarlarga talabning ortishi kuzatiladi, qaysiki kompaniyalar kengayishiga rag'batlantiradi va shu bilan birga ko'proq ishlab chiqarishga bo'lgan taklif va ishchilarga bo'lgan talab o'sib boraveradi. Har bir narsaning chegarasi bo'lganidek, bu tarzda o'sishning ham chegarasi bor. O'sish paytidagi kuchli optimizm haddan tashqari investitsiyalarning ko'payib ketishi va investorlarda spekulyativ xulq-atvorni shakllantiradi. Bizneslar bo'lsa ko'proq foydalanib qolish istagi natijasida tezda o'sib va kengayib ketishlari mumkin. Iqtisodiy o'sish sikli oxirlarida mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabning ko'payib ketishi va taklif cheklanganligidan, talab inflatsiyasi yuzaga keladi. Ma'lumki, bu iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi va aynan shu muammoni bartaraf qilish uchun Iqtisodiy keskinlashtirish tamoyili qo'llaniladi. Bunda, pul-kredit siyosatiga qarshi siyosat, ya'ni foiz stavkalarini ko'tarish qo'llaniladi. Aynan shu siyosat, iqtisodiyotni biroz o'z oqimiga qaytarishga yordam beradi, qaysiki, endi bizneslar va iste'molchilar foiz stavkalari to'lash evaziga olishgan mavjud kreditlariga ko'proq foiz to'lovini to'lashlariga to'g'ri keladi. Bu hamma uchun kredit olishga bo'lgan rag'batni pasaytiradi. Natijada, iste'molchi xarajati va mahsulotlarga bo'lgan talab kamayadi. Foiz stavkalar oshishi va talabning kamayishi bizneslarga rivojlanishdan to'xtab, ma'lum vaqt oralig'ida ishlab chiqarishni kamaytirishlariga olib keladi, natijada bizneslar ortiqcha xarajatlarni kamaytirish va ishchilarni qisqartirish yo'llarini ko'rib chiqishadi. Ishlab chiqarishning pasayishi, ishsizlik muammosi, yuqori foiz stavkasi va mavjud inflyatsiya iqtisodiyotni inqirozga olib boradi. Bunday iqtisodiy pasayish iqtisodiyotga pessimizmni yoki kelajakka ishonchsizlikni shakllantiradi

va bu investitsion holatga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu paytda, mahsulotlar va aktivlar narxi pasayishga olib keluvchi Bozor o'zgarishi yuzaga keladi. Talab va taklif ortiqchalik holatidan muvozanatlashtirilgan holatga kela boshlaydi. Keyinchalik mavjud inqiroz depressiya(yoki, iqtisodiy inqiroz)ga yuz tutmasligi, ishizlikni oldini olish va qayta rivojlanish uchun iqtisodiyotda kengaytiruvchi pul-kredit va soliq siyosatini qo'llab-quvvatlaydigan Miqdoriy yengillashtirish tamoyili qo'llaniladi. Bunda davlat xarajatlarini ko'paytiradi, soliq yuklamalarini kamaytirishga harakat qiladi va foiz stavkasini pasaytiradi. Bu jarayon yana Iqtisodiy o'sish, bandlikning yuqori darajasiga, va so'ngra, Iqtisodiy pasayish, ishizlikni oshishi tarzida harakatlanadi. Iqtisodiyotning bunday sikli o'sish, inflyatsiya, pasayish, ishsizlik, inqiroz kabi vaziyatlarni boshidan o'tkazadigan dinamik jarayon hisoblanadi. Ya'ni, bu iqtisodiy sikl doimiy tarzda bir xil ko'rinishda harakat qilmaydi, odamlarning jarayonga bo'lgan ta'siri kutilgandan boshqacha ham bo'lishi mumkin.[6,7,8]

O'zbekistonda Iqtisodiy siyosatlarning qo'llanilganining baz'i ochiq ma'lumotlarga asoslangan holda ko'rishimiz mumkin.

Ishsizlikni oldini olishda hukumat va Markaziy Bankning rolini ko'rishimiz uchun COVID-19 pandemiya vaqtini misol keltirishimiz mumkin. Bandlik va Mehnat Munosabatlari Vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyadan oldingi mamlakatdagi jami ishchi kuchi (erkaklar 16-59 yosh va ayollar 15-54 yosh) 19 millionni tashkil etgan. Jumladan, 5.1 million kishi norasmiy ish bilan band, yana 2 million kishi xorijda ishlaydi. Iyun oyidagi ishlash talabida bo'lgan shaxslar so'roviga ko'ra pandemiyaning ta'siri natijasida O'zbekistonda ishsizlik ko'paygan. COVID-19 ning O'zbekistonga kirib kelishidan oldin, 671 ming kishi bo'sh ish o'rinlarini qidirayotgan bo'lgan. O'zbekistonda karantin choralari kuchaytirilganligi munosabati bilan, ya'ni 2020-yil 20-martdan boshlab 95 mingga yaqin yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) faoliyati to'xtatilgan, 196 mingga YaTT tartibdagi tadbirkor ishlab chiqarilgan mahsulot va taqdim etilgan xizmatlar hajmini sezilarli darajada kamaytirgan. O'zbekistonda 2020-yil yanvar-iyul oylarida qayd etilgan ishsizlik darajasi 2 million kishi yoki iqtisodiy faol aholining 13,2 foizini tashkil etgan va 550 mingga yaqin odamlar boshqa mamlakatlarga ishlash uchun bora olmagan. 2020-yil 20-mayda, iqtisodiyot, tadbirkorlik sub'ektlari va aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha oltita chora-tadbirlar paketi qabul qilindi:

Birinchi paket: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Cheklash bo'yicha zudlik bilan chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2020-yil 19-martdagi 5969-son - 'Farmoni Koronavirus pandemiyasi va global inqirozning iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy

ta'sirini oldini olish bo'yicha'. Ushbu chora-tadbirlar asosan moliyaviy va iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Inqirozga qarshi kurashish Jamg'armasi (10 trillion so'm yoki taxminan 1 milliard AQSh dollari) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri huzurida Inqirozga qarshi komissiya tuzilgan va zudlik bilan inqirozga qarshi qo'shimcha chora-tadbirlar ishlab chiqishga chaqirgan.

Ikkinchi to'plam: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 5978-sonli Farmoni Koronavirus pandemiyasi davrida aholini, iqtisodiyot tarmoqlarini va korxonalarini va karantin cheklovlari ostidagi korxonalarini qo'llab-quvvatlash 2020-yil 3-aprelda qabul qilingan[].

Uchinchi paket: "Koronavirus davrida aholini, byudjetni, asosiy infratuzilmani va biznesni qo'llab-quvvatlash uchun xorijiy yordam" 2020-yil 22-apreldagi № 4691 sonli jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. To'plam tashqi yordamni mustahkamlash, tibbiy infratuzilma (sog'liqni saqlash va sog'liqni saqlash xizmatlari) boshqa infratuzilma bilan bir qatorda (qishloq xo'jaligi, kommunal xo'jalik va energetika) uchun mo'ljallangan.

To'rtinchi paket: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni. "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi 2020-yil 27-apreldagi 5986-sonli Farmoni. (Ushbu chora-tadbirlar ijtimoiy yordam va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga taalluqlidir: xayriya, soliq imtiyozlari, pensiya, moddiy yordam va boshqalar).

Beshinchi paket: 2020-yil 14-mayda karantin choralari yengillashtirish boshlangani e'lon qilindi. Bu korxonalarini to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlash, shuningdek, aholi uchun ijtimoiy imtiyozlar qamrovini kengaytirishni o'z ichiga olgan.

Oltinchi paket: Bu bo'lim, 2020-yil 20-maydan 'O'z-o'zini ish bilan band qilish'ni qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan. Bu yordam qariyb 30 trillion so'm yoki YaIMning 5,9 foizini tashkil etgan (2019).[9]

O'zbekiston Markaziy banki (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki) COVID-19 pandemiyasiga javoban pul-kredit siyosati bo'yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- Foiz stavkasini pasaytirish. Markaziy bank 2020-yil mart oyida foiz stavkasini 14 foizdan 12 foizga pasaytirdi. Bu biznes yurituvchilarning qarz olishini arzonlashtirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish maqsadida qilingan.

- Bank tizimiga likvidlikni ta'minlash. Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari va **repo** shartnomalari orqali bank tizimiga likvidlikni chiqardi. Bu



korxonalar uchun qarz olish uchun etarli mablag' mavjudligini ta'minlash uchun qilingan.

- Zaxira talablaridan (reserve requirements) voz kechish. Markaziy bank olti oy muddatga banklar uchun majburiy rezerv talablaridan voz kechdi. Bu banklarning tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishlari uchun ko'proq pul bo'shatish uchun qilingan.

- Korxonalariga kreditlar berish. Markaziy bank O'zbekiston Davlat taraqqiyot banki orqali tadbirkorlik sub'yektlariga kreditlar ajratdi. Ushbu kreditlar korxonalariga o'z operatsiyalari va investitsiyalarini moliyalashtirishda yordam berish uchun sarflangan. Pul-kredit siyosatining ushbu choralari O'zbekistonda COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy ta'sirini yumshatishga yordam berdi. Iqtisodiyot 2021-yilda 5,6 foizga o'sdi va inflyatsiya darajasi past ko'rsatkichda saqlanib qoldi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati chora-tadbirlari ham tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga va chuqurroq iqtisodiy tanazzulning oldini olishga yordam berdi. Biroq, Markaziy bankning pul-kredit siyosati choralari ham inflyatsiyaning oshishiga olib keldi. Inflyatsiya 2019-yildagi 8,7 foizdan 2020-yilda 12,1 foizga ko'tarildi. Markaziy bank inflyatsiyani nazorat qilish maqsadida siyosat stavkasini 14 foizga oshirdi.

O'zbekiston hukumati COVID-19 pandemiyasiga qarshi bir qator **fiskal choralarni** ko'rdi. Bu chora-tadbirlarga quyidagilar kiradi:

- Sog'liqni saqlashga xarajatlarning ko'payishi. Hukumat COVID-19 ga qarshi kurashni qo'llab-quvvatlash uchun sog'liqni saqlash sohasiga qo'shimcha 1 milliard dollar ajratdi. Ushbu mablag' tibbiy buyumlar sotib olishga, yangi shifoxonalar qurishga va tibbiyot xodimlarini o'qitishga sarflandi.

- Ijtimoiy yordamning oshirilishi. Hukumat kam ta'minlangan oilalar va fuqarolarga beriladigan ijtimoiy yordam miqdorini ikki baravar oshirdi. Bu yordam odamlarga oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa zarur xarajatlarini qoplash uchun ishlatilgan.

- Kamaytirilgan soliqlar va yig'imlar. Hukumat korxonalar va jismoniy shaxslar uchun soliq va yig'imlarni kamaytirdi. Bu chora tadbirkorlik sub'yektlarining barqaror turishiga yordam berish va odamlarga ko'proq pul sarflay olish qobiliyatini oshirish maqsadida amalga oshirilgan. Ushbu fiskal chora-tadbirlar O'zbekistonda COVID-19 pandemiyasining iqtisodiy ta'sirini yumshatishga yordam berdi. Iqtisodiyot 2021-yilda 5.6 foizga o'sdi va inflyatsiya ko'rsatkichi past darajada saqlanib qoldi. Hukumatning fiskal choralari jamiyatning eng zaif qatlamlarini himoya qilishga ham yordam berdi (*Fiskal siyosat\**

- davlat tomonidan davlat xarajatlari va soliqqa solish tartibiga kiritiladigan o'zgartirishlar).

Xulosa o'rnida, aholining doimiy ravishda yaxshi ta'minlangan maosh bilan band bo'lishi iqtisodiy rivojlanishni, yaxshi yashash tarzini va farovon hayotni ta'minlaydi. Ammo, mamlakatda yaxshi rivojlantirilmagan tizim, jumladan, aholini yaxshi malaka bilan ta'minlash, ularga mos ish o'rinlarini topib berish tizimlari, aholining bandlik darajasiga salbiy ta'sir etadi. Bu esa, aholining ishlashga rag'batini so'ndirishi, yaxshi mahoratga ega bo'lmagan aholi yaxshi ish bilan ta'minlanmasligi va har qanday tashqi muhitdan kelgan raqobatda yutqazishga majbur bo'ladi. O'z-o'zidan mehnat resursining mamlakatdan tashqari chiqishi, inson kapitalining ketib qolishi kuzatiladi. Bu jarayon uchun Mehnat birjasini rivojlantirish, mahorat va malaka o'rgata oladigan xususiy sektorlarni joriy qilish talab etiladi. Mamlakat xarajatlarining bir qismi shu sektorlarga yo'naltiriladi. Bunday tizimning joriy etilishi, ishlash talabida bo'lgan malakali aholini hech birini ishsiz qoldirmaydi. Shuningdek, mahorat va malaka o'rgatishga asoslangan sektorlar doimiy tarzda malakali xodimlarni yetishtirib chiqaradi, va har qanday raqobatga bardoshli ishchilarni tarbiyalaydi. Bunday tizim, ishchilarni har vaqt qayta tayyorlashga yoki mahoratlashga tayyor bo'lganligi sababli, har qanday texnologik rivojlanishi ishchilarning davriy ishsiz bo'lib qolish oldini oladi (*Mehnat birjasi\** - ishchilar va ish beruvchilarni ko'rishtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi).[4]

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/labor-market-2>
2. World Employment and Social Outlook | Trends 2023. the Publications Production Unit (PRODOC) of the ILO. -Geneva: International Labour Office, 2023. ISBN: 9789220372920 (web PDF).
3. Ishsizlikning sabablari turlari va uni bartaraf etish yo'llari. Kenjaboyeva Havasxon Abduhakim qizi. -O'zbekiston: Sharq falsafasi, 2023.
4. O'zbekistonda ishsizlik muammosi va uni bartaraf etish. Raxmonov Asadbek, Meliyeva Nargiza, Jo'rayev Samandar. -O'zbekiston: Journal of new century innovations, 2022.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki>
6. Gali, J. (2015). "Monetary Policy, Inflation, and the Business Cycle: An Introduction to the New Keynesian Framework and Its Applications" (2nd edition). Princeton University Press, 41 William Street. ISBN: 978-0691164786.

7. Karl E. Case, Ray C. Fair, and Sharon M. Oster. (2016). "Principles of Macroeconomics" Pearson. (12th edition). ISBN-13: 978-0134078809.
8. Roger A. Arnold (2018). "Economics" (13th edition). Cengage Learning. ISBN: 978-1337617383.
9. Data of the Ministry of Employment and Labor Relations of the Republic of Uzbekistan. Part 3 \_04. Crisis and Fragility: Economic Impact of COVID-19 and Policy Responses
10. McKinsey Global Institute (2017). "The Future of Work: Automation, Globalization, and the Middle Class". Identification number: No. 17-035
11. "The Impact of Technological Change on Employment" by the McKinsey Global Institute December-2017.
12. <https://tradingeconomics.com/uzbekistan/indicators>
13. Tairovich, S. M. (2023). Trends in the development of international tourism and recreation. *Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 impact factor: 7.603, 12(06), 29-34.*